

Mavzu: Windows haqida

Ta'limiy maqsad: Windows operatsion tizimi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: O`quvchilarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o`quvchilar bilimnini yangi bilimlar bilan boyitish.

Dars turi: amaliy, yangi bilim berish, og`zaki, savol-javob.

Dars uslubi: Aralash.

Dars jihozi: kompyuter, darslik, qo`shimcha adabiyotlar, elektron qo`llanmalar, taqdimotlar.

DARSNING BORISHI:

I. TASHKILIY QISM

- a) salomlashish.
- b) yo`qmala qilish.
- c) siyosiy daqiqa o`tkazish.

II. YANGI DARS BAYONI

Avvalgi darsda kompyuterning tuzilishi va uning ba'zi qurilmalari haqida ma'lumot oldingiz. Bu darsda kompyuter va uning qurilmalari nima asosida ishlashini bilib olasiz.

Kompyuterni nima boshqaradi?

Kompyuter ishlashi uchun faqat elektr tokining o'zi yetarli emas. U inson tomonidan beriladigan **buyruqlar** asosida ishlaydi. Ma'lum bir vazifani bajarish uchun kompyuterga beriladigan buyruqlarning **tartibli ketma-ketligi**, odatda **dastur** deb ataladi. Ular kompyuterning tashqi xotirasida saqlanadi.

Kompyuterning qurilmalari **qattiq qism** (Hardware) deb, dasturlar **yumshoq qism** (Software) deb ataladi. Dasturlar. yumshoq qism deb atalishining asosiy sababi shundaki, ularni osongina o'chirish yoki boshqasiga almashtirish imkoniyati bor.

Kompyuterdan samarali foydalana olishimiz uning faqat texnik imkoniyatlarigagina emas, balki ko'proq undagi dasturlarga ham bog'liq bo'ladi. Chunki, kompyuterdagi dasturlargina kerakli qurilmalarni ishga tushiradi va bizga matn yozish, rasm chizish, musiqa eshitish, kino ko'rish kabi imkoniyatlarni beradi.

Kompyuterlar uchun hilma-xil dasturlar ishlab chiqarilgan. Ular ichida eng asosiy dastur **operatsion sistema** hisoblanadi. Kompyuter ishga tushirilganda awalo operatsion sistema ishga tushadi.

U kompyuter qurilmalari va dasturlarning mutanosib ishlashini ta'minlab, kompyuterda ishlashimizni osonlashtiradi. Operatsion sistemalar juda ko'p bo'lib, **WINDOWS 98, WINDOWS XP, LINUX, UNIX, MACHINTOSH** shular jumlasidandir.

Fayl yoki papka nima?

Awalgi darsda ma'lumotlar kompyuterning tashqi xotirasida saqlanishini bilib oldingiz. Tashqi xotirada saqlanayotgan har qanday ma'lumot o'z nomiga ega bo'ladi. Tashqi hotirada biror nom bilan saqlab qo'yilgan har qanday ma'lumot **fayl** deb ataladi.

Fayllarga misollar:



Kompyuterda saqlanayotgan fayllar juda ko'p bo'lishi mumkin. Ularning ichidan keraklisini izlab topish oson bo'lishi uchun fayllarni guruhlariga ajratib tashqi xotiraning alohida qismlarida saqlash qulay.

Bu qismlar nomlanib **papka** (katalog) deb ataladi. Fayllarni guruhlariga ajratishda, ularning musiqaga, kinoga, o'yinga, kimga yoki qaysidir sohaga tegishliligiga yoki yana boshqa hususiyatlariga qaraladi. Bir nechta fayl biror **nomli papkaga joylanishi** mumkin. Lozim bo'lsa papka ichiga papka ham joylashtirilishi mumkin.

Windows nima?

Windows inglizcha so'z bo'lib, **derazalar, oynalar** degan ma'noni anglatadi. Biz o'rganmoqchi bo'lgan **WINDOWS XP** operatsion sistemasi ishga tushganda monitorda quyidagi ko'rinish aks etadi:

Bu ko'rinish **Windowsning ish stoli** yoki qisqacha **ish stoli** (*Рабочий стол*) deb ataladi.



Ish stolida, asosan, **Pusk** (*ИТуск*) **tugmasi**, **Masalalar paneli** (*ИJaHeji 3adan*), **Mening kompyuterim** (*Mou KOMnbwmep*) **papkasi**, **Mening hujjatlarim** (*Mou doKyMewnb*) **papkasi**, **Savatcha** (*Kop3una*), **Fayl belgisi**,

Yorliqlar (burchagida strelka belgisi bor rasmlar) joylashgan bo'ladi. Ularning hammasi rasmchalar shaklida berilgan. Bu rasmchalar **piktogrammalar** deyiladi.

Fayl belgisida fayl nomi va bu fayl hosil qilingan dasturga mos belgi ko'rsatilgan bo'ladi. Har bir yorliq esa biror fayl yoki papkaga mos keladi. Yorliqlar yordamida kerakli papka yoki fayl osongina ochiladi.

UYGA VAZIFA

1. Kompyuter nima asosida ishlaydi?
2. Kompyuter uchun asosiy dastur haqida nimalarni bilasiz?
3. Fayl yoki papka nima?
4. Windows qanday ma'noni anglatadi?
5. WINDOWS XP operatsion sistemasi ishga tushganda monitorda nimalar aks etadi?
6. Ish stoli haqida so'zlab bering.
7. Yorliq qanday vazifani bajaradi?
8. Piktogramma nima?
9. Fayl belgisi va yorliqning farqini aytib bering